

## **"5+1 tizimi" bo'yicha Botiometrik markazga sayohat**

"Qishloq va suv xo'jaligi energiya ta'minoti" fakulteti 5430500- Qishloq va suv xo'jaligi energiya ta'minoti ta'lif yo'naliشining 1-bosqich talabalari 2021-yil 27-fevral kuni "5+1 tizimi" bo'yicha "Elektrotexnologiyalar va elektr jihozlaridan foydalanish" kafedrasi assistenti N.Aytbaev bilan Toshkent shahar Sergili tumanida joylashgan "Botiometrik markaz"ga tashrif buyurishdilar.



Talabalar "Botiometrik markaz"ning asosiy ish faoliyati bilan tanishdilar. Markaz zamonaviy texnolgiyalar bilan ta'minlangan bo'lib, asosan ish faoliyati Respublikamizning barcha viloyatlarida nasos stansiyalariga servis xizmt ko'rsatishdan iboratdir.



Ushbu markazda mutaxasislar tamonidan talabalarga elektr motorlarni izoliyatsiyasini qarshiligini tekshirish, nasos stansiyalarining ishdan chiqish sabablarini tushuntirib berishdilar. So'ngi texnologiyalar bilan jihozlangan ushbu loboratoriya qurilmalari talabalarda katta qiziqish va ta'surot qoldirdi. Talabalar o'zlarini qiziqtirgan savollarga mutaxassislardan yetarlicha javoblar olishdi.

**TIQXMMI matbuot xizmati**